

SUYIMA G'ANIYEVANING HAYOT VA IJOD YO'LI

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili
1-kurs talabasi Ya'qubova Nigora Dilshod qizi
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. Yuldasheva X.
nigorayaqubova1211@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sharqshunos va navoiyshunos olimi Suyima G'aniyevaning hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, uning buyuk shoir va g'azal mulkingning sultoni bo'lmish Alisher Navoiyning ijodini o'rganishga qo'shgan hissasi haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Suyima G'aniyeva, Alisher Navoiy, hayoti va ijod yo'li, olimi.

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о жизни и творческом пути великого востоковеда и навоиоведа Суюмы Ганиевой. Также рассматривается её вклад в изучение творчества Алишер Навои - великого поэта и султана мира газелей.

Ключевые слова: Суюма Ганиева, Алишер Навои, жизнь и творческий путь, учёная.

Annotation: This article provides information about the life and creative path of the great orientalist and Navoi scholar Suyima Ganiyeva. It also discusses her contribution to the study of the works of Alisher Navoi, the great poet and the sultan of the realm of ghazals.

Keywords: Suyima Ganiyeva, Alisher Navoi, life and creative path, scholar.

Suyima G'aniyeva biz yoshlarga o'rnak bo'ladigan taniqli olimi hisoblanadi. U nafaqat O'zbekiston ilmiy doiralarida, balki Eron, Turkiya, Ozarbayjon, Tojikiston va Rossiyada hurmatga sazovor bo'lgan. 1932-yil 20-fevralda Toshkent shahrida ishchilar oilasida tavallud topgan bo'lib, otasi G'anijon Tursunov adabiyot va san'atga qiziqadigan kishilardan bo'lgan, onasi Soraxon aya esa Alisher Navoiy va Mashrab ijodini juda yaxshi bilgan oqila ayol edi. Olima, taxminan, 4-5 yoshlaridan she'r va qo'shiqlarni yod olar edi. Shuningdek, Alisher Navoiy baytlarini yodlashga qiziqishi ham ota-onasini juda hayratlantirar edi.

Suyima G'aniyeva 1946-yili o'rta maktabni bitirgach, O'zbekiston Respublikasi Milliy universitetining tayyorgarlik kafedrasida ta'lim oladi va a'lo darajada o'qigani sababli 1947-yil, 15 yoshida imtihonsiz Sharqshunoslik fakultetiga qabul qilinadi. S.G'aniyevaning tirishqoq va zukkoligini payqagan ustozlari unga Sankt-Peterburgdagi Adabiyot institutiga kirishni tavsiya qiladi. 1953-1956-yillarda

Leningrad davlat universiteti sharq fakulteti aspiranturasida o'qiydi. Suyima G'aniyeva ilmiy rahbari sharqshunos olim Aleksandr Nikolayevich Boldirev edi. Aleksandr Nikolayevich Boldirev olimaning bakalavrda o'qiyotgan davrida "Fors mumtoz adabiyoti" fanidan dars bergan va olimada katta taassurot uyg'otgan edi. Olima dissertatsiyasi mavzusi "Majolis un-nafois"ning III va IV majlislari ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili bo'lgan va uni 1956-yil 22-fevral 24 yoshida akademik ilmiy kengashida nomzodlik ishini himoya qildi. Olimaning dastlabki asari "Alisher Navoiy" kitobi bo'lib, unda Mir Alisher Navoiyning mashaqqatli hayoti, ijodiy faoliyati va buyuk adabiy merosi ommabop uslubda bayon etilgan. Bu kitobni olimaning yangi manbalardan foydalanib yozgan edi. So'ngra Suyima G'aniyeva "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so'zboshi bilan 1961-yilda nashr etgan va Moskva, Leningrad, Eron, Afg'oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirib olimadan nusxa yuborishni so'rashgan. Bunday katta qiziqish va e'tirofni ko'rgan olimaning "Majolis un-nafois" haqida 50 ga yaqin maqolalarini o'zbek, rus, ingliz, fors, olmon, fransuz tillarida chop ettirdi. 1962-yil olimaning "Navoiy hayoti va ijodi" nomli kitobi nashrdan chiqadi. Bu kitob qayta to'ldirilib 1968-yilda qayta chop etiladi.

Suyima G'aniyeva ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishdan tashqari oliy o'quv yurtlarida talabalarga dars berib, ularga o'z bilim va tajribalarini o'rgatgan. Yosh tadqiqotchi talabalarga ham rahbarlik qilib, talabchan murabbiy sifatida yetuk kadrlar tayyorlashga o'z hissasini qo'shgan.

Olimaning 1992 yilda Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'lgan. 1999 yilda esa «El-yurt hurmati», 2008 yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan. Unga 2015 yilda O'zbekiston qahramoni unvoni va Oliy nishon – Oltin yulduz medali topshirilgan.

O'zbekiston Qahramoni, buyuk navoiyshunos olimaning Suyima G'aniyeva 2018-yil 1-sentabr kuni 86 yoshida vafot etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyorova N. (2024) Suyima G'aniyeva-buyuk navoiyshunos olimaning.
2. Muxammedova F. (2025) Sharqshunos olimaning Suyima G'aniyeva hayoti va ijodi talaba nigohida.